



TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANK KREDITLARINING O'RNI

Berdimurodov Ramziddin Erkin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda tijorat bank kreditlarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda tijorat banklarining kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli, kreditlash jarayonlari va bu jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, maqolada bank kreditlarining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati, tadbirkorlikni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Maqola, tijorat bank kreditlaridan samarali foydalanishning amaliy tavsiyalarini ishlab chiqadi va iqtisodiy o'sishning muhim omillari sifatida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, kambag'allikni qisqartirish, tijorat banklari, kreditlash, kichik va o'rta biznes, iqtisodiy rivojlanish, ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy barqarorlik, moliyaviy resurslar, iqtisodiy o'sish*

Kirish. Tijorat banklari qarz oluvchilarga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqiga ega.

Qarz oluvchi bo'yicha Kredit axborotining davlat reyestri va kredit byurolariga taqdim etilayotgan kredit axboroti ma'lumotlari tijorat bankining kredit yig'majildidagi kredit axborotiga mos bo'lishi lozim.

Qarz oluvchi tomonidan zarur hujjatlar taqdim qilingandan so'ng, uning arizasi «Arizalarni ro'yxatga olish kitobi»ga qayd qilinishi hamda bir vaqtning o'zida qarz oluvchiga ariza tijorat banki tomonidan qabul qilinganligi to'g'risida «Ma'lumotnoma» berilishi lozim. Bunda «Ma'lumotnoma»ning birinchi qismi tijorat bankida qoldiriladi, ikkinchi qismi esa, qarz oluvchiga taqdim etiladi. Qarz oluvchi «Ma'lumotnoma»ning birinchi qismini uni olganligi to'g'risidagi sanani ko'rsatgan holda imzolaydi, ariza elektron tizim orqali qabul qilingan hollar bundan mustasno.

Qarz oluvchilarning kredit olish bo'yicha elektron tizim orqali qabul qilingan arizalari ham «Arizalarni ro'yxatga olish kitobi»ga qayd qilinadi va arizaga «Elektron qabul qilindi» degan belgi qo'yiladi. Bir vaqtning o'zida qarz oluvchiga ariza tijorat



banki tomonidan elektron tizim orqali qabul qilinganligi to'g'risida elektron shaklda «Ma'lumotnoma» yuboriladi hamda tijorat bankida qolgan «Ma'lumotnoma»ga uning elektron shaklda yuborilganligi to'g'risida yozuv kiritiladi va sana ko'rsatilgan holda imzolanadi.

Tijorat banklari o'zlari bilan doimiy ravishda aloqaga ega, bank hisobvarag'ida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro' va kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga ta'minot turlaridan birini talab qilmay blankli (ishonchli) kredit berish huquqiga egadir.

«Garov to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 96-modda 5-moddasi.) O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Kredit hisobiga sotib olingan mulk, ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1	• mol-mulk va qimmatli qog'ozlar garovi; • tijorat banki yoki sug'urta kompaniyasining kafolati;
2	• uchinchi shaxs kafilligi; • qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarmaslik xatarining tijorat banki foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi
3	• ta'minotning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari.

1-rasm. Ta'minot turlari

Banklar qarz oluvchilar tomonidan kredit qaytarilishining ta'minoti sifatida taqdim qilingan mol-mulkni uning xususiyatidan kelib chiqqan holda kreditning qaytarilgan qismiga nisbatan garovdan chiqarish huquqiga ega (22-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2014 yil 19 apreldagi 12/6-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 2546-1, 30.04.2014 y.) asosan - O'R QHT, 2014 y., 18-son, 206-modda.). O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292- moddasiga



muvofig, kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova.).

Kredit yig'majildini tahlil qilish paytida tijorat banki tomonidan kredit shartnomasining turli jihatlari, qarz oluvchining kredit tarixi, uning rahbari obro'si (avvalgi ishlagan joylari, ilgari olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilganligi va boshqalar) baholanadi.

Qarz oluvchining arizasi kelib tushgan kundan boshlab, tijorat bankining kredit qo'mitasi tomonidan ushbu ariza bo'yicha asoslantirilgan holda qaror qabul qilish muddati uch ish kunidan oshmasligi lozim.

Kredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda, qarz oluvchi va tijorat banki o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng, keyingi kundan kechiktirmay tijorat banki rahbari yoki uning o'rinbosari tomonidan kreditning muddati, miqdori va foiz stavkasi ko'rsatilgan holda kredit hisobvarag'i ochish to'g'risida buxgalteriyaga farmoyish beriladi va ushbu farmoyishga asosan kredit hisobvarag'i ochiladi.

Kreditlar qarz oluvchiga alohida kredit hisobvarag'i ochish va uning to'lov topshiriqnomalariga muvofiq, ushbu hisobvaraqdan naqd pulsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan beriladi (29-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2014 yil 19 apreldagi 12/6-sonli qarori (ro'yxat raqami 2546-1, 30.04.2014 y.) tahririda — O'R QHT, 2014 y., 18-son, 206-modda.).

Qarz oluvchiga ajratilgan kreditlar O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasining tegishli balans hisobvaraqlarida hisobga olinadi (Ro'yxat raqami 773-17, 2004 yil 13 avgust, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 32-son, 369-modda.). Alohida kredit hisobvaraqlari bo'yicha berilgan kreditlar muddatli majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi, ular to'liq so'ndirilgunga qadar 91901 - «Qarzdorlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha majburiyatlari» hamda 91905 - «Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari» balans hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Kredit bo'yicha garov ta'minoti sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar 94501 - «Garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar», mulklar va mulkiy talablar 94502 - «Garov sifatida olingan mulklar va mulkiy huquqlar (talablar)», kafolat va kafilliklar esa, 94503 - «Garov sifatida olingan kafolat va kafilliklar» balans hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Kredit bo'yicha so'ndirish muddatlari jadval ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Bunda mazkur jadval so'ndirish pul oqimlari istiqbolidan kelib chiqib tuzilishi lozim. Shartli ravishda "A" tijorat bankida kichik biznes subektlarining kreditni qaytarish grafigi bilan tanishib chiqamiz.



Kreditning jami summasi 100000000 so'mni tashkil etadi. Foiz to'lovlari yillik 14 foiz (har oyda 1,17 foiz), muddati 3 yil (36 oy).

Ushbu kreditning qaytarilish annuitet grafigida har oyga bir xil to'lov to'laydi. Bundan tashqari kreditning qaytarish grafigi standart shaklda ham bo'ladi. Unda asosiy qarz summasi oyilarga teng taqsimlanadi.

“Qarz oluvchining kredit bo'yicha hisoblangan foizlar va kredit qoldig'ini undirish uchun mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda, qarzдорlik xo'jalik yurituvchi subektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida”gi yo'riqnomada belgilangan tartibda undiriladi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Ro'yxat raqami 2342, 2012 y., 11-son, 127-modda). Bunda dastlab kredit bo'yicha hisoblangan foizlar, so'ngra kredit bo'yicha asosiy qarz so'ndiriladi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning muddati davomida doimiy monitoring o'tkazadi. Monitoring qarz oluvchining arizasi va kredit shartnomasi shartlarini bajarish uchun yordam ko'rsatishga yo'naltirilishi kerak.

Monitoring o'tkazish jarayonida qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, tuzgan shartnomalari (buyurtmalar) bo'yicha majburiyatlarining bajarilayotganligi, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlari, foydasi, aylanma mablag'lari aylanmasi va dinamikasi hamda tovar-moddiy boyliklar zaxirasi holati tahlil qilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsiev, F. (2021). *Tijorat banklari va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
2. Soliev, S. (2020). *Tadbirkorlikni rivojlantirishda bank kreditlarining ahamiyati*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2019). *Banklar va iqtisodiy rivojlanish: Tijorat kreditlarining iqtisodiy roli*. Toshkent: Markaziy Bank nashriyoti.
4. Kamilov, M. (2018). *Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish: Amaliy yondashuvlar*. Toshkent: “Iqtisodiy tahlil” nashriyoti.
5. International Finance Corporation (IFC). (2020). *Bank Lending to Small and Medium Enterprises: Key Factors and Challenges*. Washington D.C.: IFC Publications.





6. World Bank. (2021). *Financing for Development: Supporting Entrepreneurship and Reducing Poverty*. Washington D.C.: World Bank Publications.

7. Karimov, S. (2021). *Iqtisodiy barqarorlik va kambag'allikni qisqartirishda tijorat bank kreditlari*. Toshkent: "Iqtisodiy rivojlanish" nashriyoti.

8. ADB (Asian Development Bank). (2020). *Small Business Financing: A Strategy for Sustainable Economic Growth*. Manila: Asian Development Bank.